XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2022 - yil 5 - yanvar VI-42-6-8-113-K/22 Qiziriq tuman hokimligi

Qiziriq tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash haqida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Qiziriq tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan berilgan hisobot va takliflarini xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasida tinglashda bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman davlat soliq inspektsiyasi boshlig'i R.Sattarovning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Qiziriq tumanida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2022-yil uchun yer solig'i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti va taklifi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida belgilangan yer solig'i bazaviy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsentlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Moliya bo'limi (I.Tilovmurodov), tuman Davlat soliq inspektsiyasi (R.Sattarovga)ga yer solig'ining amaldagi stavkalariga 1,07

baravargacha indeksatsiya qilinishi bo’yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig’i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo’llagan holda yer solig’i stavkalari belgilanganligi yuzasidan ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda press klublar va turkum chiqishlarni amalga oshirish hamda aholi orasida tushuntirish ishlari tashkil etish;

belgilangan yer solig’i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun tuman hududida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko’cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo’llanishini ta’minlash;

elektr uzatish liniyalari, umumdavlat aloqa liniyalari, umumiy foydalanishdagi temir yo’llar, elektr ta’minoti qurilmalari, magistral neft va gaz quvurlari hamda shunga o’xshash inshootlar band etgan yerlar uchun tumanda o’rtacha soliq stavkasi asosida soliq organi tomonidan belgilanishi va 5 yanvargacha soliq to’lovchilarga yetkazilishini ta’minlash;

jismoniy shaxslarning yer maydonlari uchun olinadigan yer solig’i (turistik zonalarda joylashgan yer uchastkalaridan tashqari) summasi 2021-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o’z vaqtida va to’liq to’lab borishlarini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig’i va undirilgan soliqlari to’g’risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Bo’riyev) va “Taraqqiyot” gazetasi (Ch.Alimovga)ga tuman Kengashi deputatlari bilan hamkorlikda mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to’g’risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo’yicha doimiy

komissiyasi (Yu.Umbarov) va tuman hokimining birinchi o’rinbosari I.Yarmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Yusupov I. E.**

Халқ депутатлари Қизирик туман
Кенгашининг
2022 йил 5 январдаги
VI-42-6-8-113-K/22-сон қарорига
1-илова

Qiziriq tumanidagi mahalla va qishloq fuqarolar yig’inlari bo’yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig’i bazaviy stavkalariga qo’llaniladigan koeffitsentlar

№	Маҳалла фуқаролар йиғинлари номи	Юридик шахслар учун ер солиғи ставкаси		Жисмоний шахслар учун ер солиғи ставкаси	
		Коэффицент миқдори	Солиқ суммаси (1 гектар учун, сўмда)	Коэффицент миқдори	Солиқ суммаси (1 кв.м учун, сўмда)
1	Қорасув” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
2	Гулобод” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
3	Заробод” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
4	Такия” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
5	Хомкон” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
6	Наврўз” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
7	Янгиобод” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
8	Истиқлол” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
9	Тинчлик” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
10	Боғбонлар юрти” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
11	Боғистон” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
12	Буюк келажак” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
13	Гулзор” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
14	Янги ҳаёт” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
15	Истара” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
16	Кармаки” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
17	Якка-терак” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
18	Мустақиллик” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
19	Оқжар” МФЙ	1,00	25 000 000,00	0,70	163,80
20	Гиламбоб” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
21	Кунчиқиш” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
22	Етимқум” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
23	Зарбдор” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
24	Зартепа” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
25	Янги кент” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80

26	Халқобод” МФЙ	0,70	17 500 000,00	0,70	163,80
27	Қишлоқозон” МФЙ	0,80	20 000 000,00	0,75	175,50
28	Работак” МФЙ	1,00	25 000 000,00	0,75	175,50
29	Дўстлик” МФЙ	1,00	25 000 000,00	0,75	175,50
30	Шодлик” МФЙ	0,90	22 500 000,00	0,75	175,50
31	Янги турмуш” МФЙ	1,00	25 000 000,00	0,75	175,50